



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

9-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 9 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### **07.00.00- TARIX FANLARI:**

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;  
Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;  
Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;  
Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;  
Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori;  
Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;  
Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### **08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:**

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;  
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;  
Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;  
Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;  
Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;  
Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  
Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

### **09.00.00- FALSAFA FANLARI:**

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;  
Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;  
G'aybullayev Otobek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;  
Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'rroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### **10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:**

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;  
Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;  
Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;  
Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;  
Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;  
Salaxutdinova Musharrafa Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;  
Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;  
Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;  
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;  
Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;  
Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.;  
Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;  
Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;  
Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;  
Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;  
Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;  
Saydullayev Shaxzod Alihanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;  
Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;  
Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;  
Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);  
Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;  
Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;  
Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;  
Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;  
Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;  
Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;  
Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;  
Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasilisa Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

#### **22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:**

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### **23.00.00- SIYOSIY FANLAR**

Nazarov Nasriddin Ataqulovich -siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI  
5-jild, 9-son (sentyabr, 2025). - 198 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li</i>	
THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA: THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS .....	9-13
<i>Xurramov Xamid Bobokul o'g'li</i>	
AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN? .....	14-18
<i>Zikirova Maxprat Soliyevna</i>	
HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI .....	19-25

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i>	
СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА .....	26-38
<i>Rajabov Alibek Xushnudbekovich</i>	
ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI .....	39-46
<i>Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna</i>	
OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES IN TEXTILE ENTERPRISES .....	47-52
<i>Shixiyev Raxim Muhammedovich</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI .....	53-60
<i>Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna</i>	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI .....	61-66

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Navro'zova Gulchehra Nigmatovna</i>	
BAHOUDDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI .....	67-70
<i>Yuldasheva Diloram Yuldashevna</i>	
O'ZBEKİSTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI .....	71-74
<i>Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich</i>	
ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI .....	75-80

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Ayimbetova Zamira</i>	
BADIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH VA TASNIFFLASHNING NAZARIY ASOSLARI .....	81-87

<i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i>	
ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLARI .....	88-92
<i>Petrosyanç Эрнест</i>	
СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА .....	93-99
<i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i>	
NAVOIY VA TILIMIZ .....	100-103
<i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i>	
ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI .....	104-107
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Firuza Muxitdinova</i>	
JAMIyat BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILIY MULOHAZA .....	108-113
<i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i>	
NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI .....	114-123
<i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i>	
IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI .....	124-135
<i>Umarova Barno Akbutayevna</i>	
FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIYY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI .....	136-143
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i>	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI .....	144-150
<i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i>	
ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK .....	151-164
<i>Karamanova Benazir</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARNING QONUN İJODKORLIGIDA ISHTIROKI .....	165-169
<i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i>	
JINOYATLARNI OLDINI OLISHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING PREVENTIV XUSUSIYATLARI .....	170-177
<i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i>	
NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA .....	178-181
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i>	
VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH .....	182-185

*Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna*

AKADEMIK LITSEYLARDA “ATOM VA YADRO FIZIKASI BO‘LIMI MAVZULARINI”  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASI. (“ELEMENTAR  
ZARRALAR «BOG‘I». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR  
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR  
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O‘ZARO  
TA’SIRNING TASHUVCHILARI” MAVZUSI MISOLIDA) ..... 186-197

**Received:** 15 August 2025

**Accepted:** 30 August 2025

**Published:** 15 Ceptemper 2025

*Article / Original Paper*

## **PENALTY AS A FORM OF LIABILITY**

**Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich,**

Independent Researcher

at Tashkent State University of Law

**Abstract.** The article examines the institution of penalty (neustojka) in Roman law. Penalty (stipulatio poenae) as a conditional agreement obligated a person who breached a contract to pay a monetary sum to the injured party. The research reveals that the main purpose of penalty was to exert pressure on the debtor and ensure the main obligation. It is emphasized that the obligation to pay penalty depended on whether the debtor was liable for the breach of contract. The article demonstrates the parties' right to include penalty clauses in contracts and its significance. The analysis shows that contract breach was the main condition that triggered the penalty obligation, and penalty served as an indirect mechanism for compelling the debtor to fulfill the obligation.

**Keywords:** penalty, Roman law, stipulatio poenae, conditional agreement, contract breach, debtor, obligation, monetary penalty, legal security, contract law.

## **NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA**

**Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Email: [sherzodbekrajabov@gmail.com](mailto:sherzodbekrajabov@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqlada Rim huquqidagi neustoyka instituti tadqiq etilgan. Neustoyka (stipulatio poenae) shartli kelishuv sifatida shartnomaga buzgan shaxsni zarar ko'rgan tomonga ma'lum miqdor pul to'lashga majburlaydi. Tadqiqotda neustoykaning asosiy maqsadi – qarzdorga bosim o'tkazish va asosiy majburiyatni ta'minlash ekanligi ochib berilgan. Neustoyka to'lash majburiyati qarzdorning shartnomaga buzganligi uchun javobgarligiga bog'liqligi ta'kidlangan. Maqlada tomonlarning shartnomaga neustoyka shartini kiritish huquqi va buning ahamiyati ko'rsatilgan. Shartnomaga buzilishi neustoyka majburiyatini faollashtiruvchi asosiy shart ekanligi, neustoykaning qarzdorni majburiyatni bajarishga majburlovchi mexanizm vazifasini o'tashi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** neustoyka, Rim huquqi, stipulatio poenae, shartli kelishuv, shartnomaga shartlarini buzish, qarzdor, majburiyat, pul to'lash, huquqiy ta'minot, shartnomaga huquqi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I9Y2025N25>

Neustoyka instituti fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o'ziga xos o'rIN tutadi. Mazkur institutning shakllanishi va rivojlanishi, uning mohiyati va funksional jihatlari xususida ilmiy doiralarda bahs-munozaralar davom etmoqda. Neustoyka institutining huquqiy tabiatini murakkab va ko'p qirrali xarakterga ega bo'lib, bu borada neustoykani "majburiyatlarni bajarishni ta'minlash usuli" sifatida yoki "fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi" sifatida talqin etish keng tarqalgan yondashuvlardan hisoblanadi.

Rim huquqida neustoyka (stipulatio poenae) ostida shartnomaga buzgan shaxsni zarar ko'rgan tomonga ma'lum miqdor pul to'lashga majburlovchi shartli kelishuv tushunilgan. Rim huquqida bunday kelishuvning maqsadi qarzdorga bosim o'tkazish va asosiy majburiyatni ta'minlash edi. Bunda neustoyka to'lash majburiyati qarzdorning shartnomaga buzganligi uchun

javobgar ekanligiga bog'liq bo'lgan. Tomonlar shartnomaga neustoyka shartini kiritish orqali o'z huquqi buzilganligining oqibatlarini shartnoma imzolanganda imkon qadar baholay olishgan. Shartnoma buzilishi neustoyka bo'yicha majburiyatni amalga oshiruvchi shart bo'lib, u odatda ma'lum miqdor pul shaklida ifodalangan va qarzdorni majburiyatni bajarishga majburlovchi mexanizm vazifasini o'tagan [1; 80- b.].

Ingliz huquq tizimida mavjud tadqiqotlar iqtisodiy, huquqiy yo'nalishlarda amalga oshirilgan bo'lib, ularda ko'pincha neustoyka (*jarima – penalty*) va zarar (*liquidated damages*) sud amaliyotida qo'llanilishini ko'rish mumkin. Turli yurisdiksiyalarda har xil ta'riflar mavjud bo'lsa-da, doktrina asosan shartnomani tuzish paytida kutilgan yoki haqiqiy zararlarni oqilona hisobga olmaydigan yoki sud tomonidan osonlik bilan aniqlanadigan zararlarni belgilaydigan shartlarni o'ziga xos "jarima" sifatida tasniflaydi. Shartnomada agar belgilangan miqdor ortiqcha yoki yetarli bo'lmasa, sudlarga bu miqdorni kamaytirish yoki oshirish imkonini beradi. Belgilangan zararlar shartnoma taraflari uchun eksklyuziv yoki ixtiyoriy huquqiy himoya vositalari bo'lishi mumkin [2; 57- b.].

Ko'pchilik sudlar zarar shartlari ixtiyoriy bo'lganda mavjud bo'lган huquqiy himoya vositalarini cheklaydilar. Ular, zarurat tug'ilganda, o'ziga xos ijro huquqini ta'minlaydilar, ammo zararlar undirishni belgilamaydi [3; 381- 406; 427-445- b.]).

Sivilistikada "qonuniy neustoyka", "shartnomali neustoyka"ni qo'llash borasida muammolar mavjud bo'lsada, "astrent", "sud neustoykasi" kabi qoidalarni qo'llashga doir qoidalari o'rnatilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Fuqarolik qonunchiligidagi neustoyka haqida normalar mavjud bo'lsada, uni undirishni ta'minlashga doir muammolar hali hanuz hal etilmasdan qolmoqda. Xususan, chiqarilgan sud hujjatlarining ijro etilishini ta'minlash, qarz ijro etilmagan taqdirda qarzdor tomonidan kreditorga to'lanadigan pul summasini belgilashga doir masalalar kun tartibida qolib ketmoqda (astrentni qo'llash, kollektorlik kompaniyalarni tashkil etish va h.k.). Masalan, bugungi kunda huquqiy amaliyotda majburiyatlarni bajarmaganlik uchun neustoyka undirish haqida qaror qabul qilinsa-da, uning ijrosi dargumon, ijro etilmaslik ehtimoli aytish mumkin-ki, juda yuqori ham bo'lishi mumkin (xususan, mablag'larning yo'qligi sababli va h.k.)

A.Odinayev neustoyka mohiyatini tadqiq etar ekan, uning zarar bilan bog'liqligi, zararni oldini olishga xizmat qilishiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, "jahon miqyosida koronavirus infeksiyasi tarqalishi, mamlakatimizda Sardoba tumani hududidagi "Sardoba suv ombori" to'g'onining o'pirilishi kabi favqulodda hodisalar natijasida kelib chiqayotgan muammolar, jumladan dehqon va fermer xo'jaliklari, kooperatsiyalar ko'rgan zararlarini qoplash bo'yicha qonunchilik bazamizda talaygina bo'shliqlar borligini qayd etadi" [4; 666-669-b.]). Shuningdek, tadqiqotchi neustoyka javobgarligining kelib chiqishi, neustoyka undirishning shakli va uni hisoblash tartibi neustoyka to'g'risidagi kelishuvning o'zida yoxud aniq normativ hujjatga ishora qilish yo'li bilan ham belgilanishi mumkin. Neustoyka to'g'risidagi kelishuvning yozma shakliga riox qilmaslik uning haqiqiy emasligiga sabab bo'lishini ko'rsatadi.

Bu o'rinda garchi muallif fikrida asosliday ko'rinsa-da, ayrim joylarida bahsli holatlar mavjud. Xususan, havolaki normalar qabul qilinishiga qarshi fikrlar ilmiy jamoatchilikda nihoyatda ko'pligini ko'rish mumkin. Qolaversa, neustoykaning shakliga riox qilish yoki qilmaslik huquqiy tizimda o'rnatilgan qoida bilan aniqlanadi. Ya'ni, qonuniy yoki shartnomali neustoyka tabiiyki, uning shakli va mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida keng tarqalgan, sud qarorini ijro etish uchun iqtisodiy rag'batlantirishning eng ommabop usullaridan biri bo'lgan "astrent" (frans. *astrainte*) bilan bog'liq. Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha yillardan buyon turli nuqtai nazarlar ilgari suriladi va fuqarolik qonunchiligidagi uni ifodalash zarurati qayd etiladi [5; 430–446-b.].

Fransiya huquqiga ko'ra astrentni moddiy-huquqiy munosabat taraflarining irodalarini kelishish yo'li bilan "bekor qilish" mumkinmi? degan savol tug'iladi. Fransiya Ijro kodeksining 131-4-moddasiga ko'ra, dastlabki astrentning miqdori ("likvidatsiyasi") astrent belgilangan shaxsning xulq-atvori va u sud qarorini ijro etishda duch kelgan qiyinchiliklarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Astrentni subyektlar doirasi bo'yicha ham kengaytirish maqsadga muvofiq, jumladan uni faqat qarzdorga emas, balki sud qarorining ijrosiga to'sqinlik qiluvchi uchinchi shaxslarga nisbatan ham qo'llash imkoniyatini yaratish lozim. Uchinchi shaxslar sud ijrochisi faoliyati doirasiga kiruvchi, xususan qarzdorning mulkini saqlayotgan yoki uning haqini to'laydigan shaxslar bo'lishi mumkin. Bu sud qarorlarining ijrosini tezlashtirishga va ijro ishlarini yuritishda uchinchi shaxslarning mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim masalaga e'tibor qaratish lozim. FK 326-moddasasi neustoyka institutining samaradorligini pasaytiruvchi bir qator qoidalarga ega bo'lib, ular mazkur huquqiy mexanizmni qo'llash amaliyotida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. O'rjanilgan sud qarorlari mazmuni shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda taraflardan biri (qarzdor) davlat korxonasi, muassasalari bo'lgan hollarda yoki hech qanday asoslarsiz ushbu modda qo'llangan holda neustoykani kamaytirish haqida qaror qabul qilinadi. Bu holat iqtisodiy sud ishlarida ko'pchilikni tashkil qiladi. Ayrim hollarda qarzdorning "nochorligi", "mablag'larning yetishmasligi" kabi isbotlanmagan izohlar berish holatlari ham mavjud [6]).

FK 326-moddasining birinchi konseptual kamchiligi neustoykani kamaytirishning "istisno holat" sifatida emas, balki umumiyoq qoida sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan tarzda ifodalanganligidadir. Normada "sud neustoykani kamaytirishga haqli" deb belgilangan umumiyoq qoida neustoykani kamaytirish sudlarning keng diskretion vakolati sifatida talqin qilinishiga yo'l ochadi. Natijada sud amaliyotida neustoyka deyarli har qanday holatda kamaytirilishi mumkin bo'lgan (masalan, odatda neustoykaning 10 foizini undirish holati uchraydi) to'lov sifatida qaralib, uning shartnoma va majburiyatlarni bajarishni ta'minlash funksiyasi zaiflashadi. Bu esa, shartnoma munosabatlarida taraflar o'rtasida kelishilgan shartlarga rioya qilish tamoyilini izdan chiqaradi.

Navbatdagi jiddiy kamchilik "neustoyka kreditorning majburiyatini buzish oqibatlariga nomutanosibligi ko'rinish tursa" iborasi orqali ifodalangan nomutanosiblik konsepsiyaning mezonlari aniq belgilanmaganligidir. Ushbu mezonlarning mavhumligi sudlarga "nomutanosiblik" tushunchasini o'zlaricha talqin qilish imkoniyatini beradi. Huquqiy aniqlik prinsipi ko'ra, qonun normalari mazmuni barcha huquq subyektlari tomonidan bir xil tushunilishi lozim. Ammo mazkur moddadagi mezonlarning mavhumligi turli sudlar tomonidan turlicha qarorlar qabul qilinishiga, natijada esa sud amaliyotining bir xilda shakllanmasligiga olib keladi.

O'zbekiston sud amaliyotida astrentni samarali qo'llash bo'yicha tushuntirishlar va tavsiyalarni ishlab chiqish sud hokimiyatining astrent institutini to'g'ri tushunishi va qo'llashi uchun muhimdir. Bu borada Oliy sud Plenumi qarorini qabul qilish va ijro departamenti, adliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralarga metodik ko'rsatmalar berish maqsadga muvofiq.

Ushbu tushuntirish va tavsiyalar astrentni belgilash mezonlari, miqdori, muddatlari, astrentni likvidatsiya qilish (yakuniy summasini belgilash) kabi masalalarini qamrab olishi lozim.

Mazkur takliflarning O'zbekiston qonunchiligiga joriy etilishi sud qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida samarali iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmini yaratishga, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini sudda himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga, sud hokimiyatining nufuzini oshirishga va pirovardida huquqiy davlatning muhim tamoyili – sud qarorlarining muqarrar ijro etilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, FKga quyidagi qo'shimchani kiritish maqsadga muvofiq:

### **"235<sup>1</sup>-modda. Majburiyat bo'yicha kreditor huquqlarini himoya qilish**

Qarzdor majburiyatni bajarmagan taqdirda, kreditor ushbu Kodeksda, boshqa qonunlarda yoki shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan yoxud majburiyat mohiyatidan kelib chiqmagan bo'lsa, sud orqali majburiyatni bajarishni talab qilishga haqli. Sud kreditorning talabiga ko'ra, ko'rsatilgan sud hujjati bajarilmagan taqdirda, uning foydasiga pul summasini (260-moddaning birinchi qismi) undirishga qaror qilishi mumkin, bunda summa miqdori sud tomonidanadolatlilik, mutanosiblik va noqonuniy yoki insofsiz xattiharakatlardan foyda olishga yo'l qo'yilmasligi prinsiplari asosida belgilanadi. Hech kim o'zining noqonuniy yoki insofsiz xulq-atvoridan foyda olishga haqli emas.

Kreditor tomonidan o'z huquqlarini ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq himoya qilinishi qarzdorni majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi (24-bob)."

### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Карапетов А. Г. Неустойка как средство защиты прав кредитора в российском и зарубежном праве. - М. : Статут, 2006. - 286 с // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 4, Государство и право: Реферативный журнал. 2007. №1. -80-б.
2. Steven Walt. Penalty Clauses and Liquidated Damages. University of Virginia Law School. The John M. Olin Program in Law and Economics Working Paper Series. 2009. 57 p. <https://law.bepress.com/cgi/viewcontent.cgi?referer=&httpsredir=1&article=1184&context=uvalwps>
3. Hatzis, Aristides N. (2002). Having the Cake and Eating it Too: Efficient Penalty Clauses in Common and Civil Contract Law=, 22 International Review of Law and Economics, 381-406.; Mattei, Ugo (1995). The Comparative Law and Economics of Penalty Clauses=, 43 American Journal of Comparative Law, 427-445.
4. Одинаев А.С. Неустойка қўллашга оид фуқаролик-хукуқий қонунчиликни такомилластириш / А. С. Одинаев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 22 (312). — С. 666-669. — URL: <https://moluch.ru/archive/312/70774>.
5. Кузнецов Е. Н. Астрэнт (astreinte) как способ принуждения должника в исполнительном производстве Франции // Российский ежегодник гражданского и арбитражного процесса. 2003. № 2. С. 430–446.
6. [www.Public.sud.uz](http://www.Public.sud.uz)

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 9 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).